



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 18 - yanvar

9-9-0-Q/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatda 2022-yilda qo‘llaniladigan davlatga tegishli ko‘chmas mulklar ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 3-bandi uchinchi xat boshisi asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan, Moliya vazirligi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilib taqdim etilgan 2022-yilda viloyatda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyatda 2022-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga, ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari zimmasiga:

tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini yilning har choragida kamida bir marta xatlovdan o‘tkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish viloyat boshqarmasiga o‘z vaqtida va to‘liq, shuningdek ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risida ishonchli axborot taqdim etish;

davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berilishiga, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni noto‘g‘ri qayd etilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalar yuklatilsin.

3. Viloyat hududida 2022-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilab qo‘yilsin.

4. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy nashrda e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi



G'.Mirzayev

Сирдарё вилоят ҳокимининг
2022 йил 18 январдаги
9-9-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

**Sirdaryo viloyatida 2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun
ijara to'lovining eng kam stavkalari**

(bir yilga umumiy foydalanish maydoning 1 kv. metr uchun)

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	1 kv. m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (so'mda QQS bilan birga)	
		Guliston shahri uchun	Tuman va shaharlar uchun
Sanoat			
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	10 400	7 600
2	Kimyoviy ishlab chiqarish	10 400	7 600
3	Neft-kimyosanoati	10 400	7 600
4	Mashinasozlik	10 400	7 600
5	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	10 400	7 600
6	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	10 400	7 600
7	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	8 500	6 300
8	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	8 500	6 300
9	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	8 500	6 300
10	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	10 400	7 600
11	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati, payvandlash va chilangarlikning barcha turlari (tokarlik xizmati)	10 400	7 600
12	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	10 400	7 600
13	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza - qog'oz ishlab chiqarish sanoati			
14	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	10 400	7 600
15	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	10 400	7 600
16	Sellyuloza - qog'oz mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
17	Deraza, eshik va darvozalar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'och va metaldan)	31 300	23 200
18	Qurilish materiallari sanoati	10 400	7 600
Yengil sanoat			
19	To'qimachilik sanoati	10 400	7 600

20	Tikuvchilik sanoati	10 400	7 600
21	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
22	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	10 400	7 600
Oziq-ovqat sanoati			
23	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	10 400	7 600
24	Go'sht va sut mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
25	Baliq mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
26	Tegirmonchilik sanoati	10 400	7 600
27	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	8 500	6 300
28	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
29	Tibbiyot sanoati	10 400	7 600
30	Poligrafiya sanoati	25 400	21 800
31	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	12 400	9 300
32	Sanoatni xo'jalik boshqaruvi	29 300	21 800
Qishloq ho'jaligi			
33	O'simlikshunoslik (shu jumladan issiqxona xo'jaligi) (1 gektar yer maydoni uchun)	4 172 400	3 094 900
34	Chorvachilik va parrandachilik	5 000	3 800
35	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) (1 gektar uchun)	4 172 400	3 094 900
36	Asalarichilik (1 gektar yer maydoni uchun)	2 712 500	2 011 900
37	Veterinariya xizmatlari	10 400	7 600
38	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	10 400	7 600
39	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) (1 gektar yer maydoni uchun)	4 172 000	3 094 900
Transport va aloqa			
40	Yer ustida harakatlanuvchi umumfoydalanishdagi temir yo'l transporti	10 400	7 600
41	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	10 400	7 600
42	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 650	2 100
43	Avtomobillarni yuvish	33 500	21 900
44	Avtomobillarga yonilg'i quyish	33 500	28 200
45	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	18 800	14 100
46	Pochta aloqasi	10 400	7 600
47	Kuryerlik aloqasi	20 900	15 400
48	Elektr-simli aloqa	20 900	15 400

49	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	87 700	65 100
Qurilish			
50	Qurilish	10 400	7 600
51	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	10 400	7 600
52	Plastik deraza va eshiklar ishlab chiqarish	61 400	36 500
Savdo va umumiy ovqatlanish			
53	Ulgurji savdo	29 300	21 800
54	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	75 100	55 600
55	Chakana savdo	29 300	21 800
56	Umumiy ovqatlanish	29 300	21 800
57	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	45 800	31 400
58	Kitob do'konlari	4 100	3 200
59	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	29 300	21 800
60	Xalq xo'jaligi savdo-xarid mahsulotlari dallolik xizmatlari	45 800	34 000
61	Moddiy texnika ta'minoti va yetkazib berish	29 300	21 800
62	Ma'lumot-hisoblash xizmatlari	29 300	21 800
63	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	29 300	21 800
64	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	29 300	21 800
65	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	29 300	21 800
66	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	29 300	21 800
67	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	52 200	38 600
68	Tahririyat va nashriyotlar	16 800	12 400
69	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	16 800	12 400
70	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	16 800	12 400
71	Mehmonxona xo'jaligi	33 400	24 700
72	Umumiy yashash joylari	26 000	18 900
73	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	16 800	12 400
74	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	25 200	18 900
75	Lombardlar	37 800	28 000
76	Hammomlar va xojatxonalar	50 300	37 300
77	Saunalar va basseynlar	100 200	74 400

Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot			
78	Sog'liqni saqlash	20 900	15 400
79	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	20 900	15 400
80	Fitobar	14 500	10 700
81	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	33 400	24 700
82	Jismoniy tarbiya va sport	10 400	7 600
83	Dorixonalar	16 800	12 400
84	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	35 200	19 600
85	Ijtimoiy dorixonalar	14 900	10 000
Ta'lim			
86	Oliy va o'rta-maxsus ma'lumotli kadrlarni tayyorlash, repetitorlik (o'quv kurslari bilan)	16 800	12 400
87	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	13 100	10 100
88	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 300
89	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	10 400	7 600
90	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 400	5 800
91	Madaniyat va san'at	29 300	21 800
92	Ko'rgazmalar	22 600	17 500
93	Maktabdan tashqari tarbiya	8 500	6 300
94	Madaniyat va dam olish bog'lari	20 900	15 400
95	Botanika bog'lari va zooparklar	20 900	15 400
96	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	20 900	15 400
97	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	33 400	24 700
98	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	12 700	9 300
99	Avtomaktablar	18 600	11 000
Moliya-kreditlash faoliyatilari			
100	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	29 300	21 800
101	Auditorlik faoliyati	29 300	20 400
102	Bank faoliyati	29 300	21 800
Faoliyatning boshqa turlari			
103	Sug'urta va notarial xizmatlar	29 300	21 800
104	Sud va yuridik xizmat muassasalari	25 200	18 900
105	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	25 200	18 900
106	Jamoatchilik birlashmalari	8 500	6 100
107	Omborxonalar	29 300	21 800
108	Davlat tashkilotlariga ofis	12 700	9 300

109	Xususiy tashkilotlarga ofis	45 800	34 000
110	Arxiv xizmati	12 700	7 800
111	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan vulkanizatsiya)	33 400	24 700
112	Laboratoriyalar	20 900	15 400
113	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	83 900	62 100
114	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	45 800	34 000
115	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	40 100	29 800
116	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	45 800	34 000
117	Bankomatlar	418 100	310 100
118	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	29 300	18 900

Izoh:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig'ilish bayonining (30.06.2009 y. №7/10-41) 11-bandiga muvofiq, Qishloq vrachlik punktlari huzurida faoliyat yuritayotgan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar dorixona muassasalariga davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2012-yildagi 02/1-74-son topshirig‘iga asosan yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qismlar va muassasalar hududida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari uchun ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara xaqining "nol" stavkasi qo‘llaniladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-iyuldagi 4771-sonli qaroriga asosan uyali aloqa kompaniyalariga ijara to‘lovi belgilangan stavkada viloyat markazi, tuman va shaharlarga oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llanilgan holda hisoblanadi.

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 204-moddasi “Soliq solinadigan bazani belgilash”ga asosan qurilish, qurilish-montaj, ishga tushirish va sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo‘yicha, shuningdek obyektlarni tayyorlashga tayyor holda to‘lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 834-son qaroriga muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonolari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘lovining "nol" stavkasi asosida beriladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan, 2018-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘lovining "nol" stavkasi asosida ajratiladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018-yildagi 609-20-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tasarrufidagi bino-inshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlik tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilganda ijara to‘lovi “nol” minimal stavkada qo‘llaniladi.

davlat ulushi mavjud korxonalar va tashkilotlar mulklari, yotoqxona sifatida foydalaniladigan mulklar, antenna kuchtalari o‘rnatish va foydalanish, maxsus ruxsat talab etiladigan davlat mulklari, faoliyat turini o‘zgartirib bo‘lmaydigan davlat mulklari yer-auksion tanlovisiz uch tomonlama ijara shartnomasi rasmiylashtiriladi.

Сирдарё вилоят ҳокимининг
2022 йил 18 январдаги
9-9-0-Q/22-сон қарорига
2-илова

Ijara haqining eng kam stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsientlar

I. Hududiy zonalar koeffitsienti – (Kz)			
Guruhlar raqami	Hududlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsienti
1	Guliston shahri	I	3,0
2	Sirdaryo shahri Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,6
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani (boshqa hududlari)	III	2,3
4	Sardoba tumani Sayxunobod tumani Guliston tumani	IV	2,2
5	Boyovut tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	V	2,0
II. Binoning qurilish turi boʻyicha koeffitsienti – (Kk)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, bolaxona		0,9
2.4	Yarim yer toʻla, yer toʻla		0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar		0,8
III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti – (Kx)			
3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud boʻlganda		0,8
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsienti – (Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yoʻllarida joylashganda		0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yoʻllarida joylashganda		0,5

Izoh: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 10-bandiga muvofiq, mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara toʻlovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat, undan samarali foydalanish muddatidan ortiq boʻlmasa yoki ushbu muddatda teng boʻlsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin boʻlsa – ijara toʻlovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq boʻlsa – ijara toʻlovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam boʻlishi mumkin emas.